



## TALABA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA O'QITUVCHILARNI O'RNI VA ROLI

**Umarov Ismoiljon Olimjonovich.**

*Farg'ona Davlat Universiteti, Harbiy ta'lif fakulteti, O'qituvchi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, avvalo, yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilishlari uchun tayyorlash, bu yuzasidan amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohotlar, oliy va o'rta ta'lifda ayni yo'nalish bo'yicha ta'lif dasturlari, rezervdagi va zahiradagi ofitserlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va bu borada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar va bularni amalga oshirishda harbiy psixologiyaning o'rni va roli haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tinchlik siyosati, Qurolli Kuchlar, "Chaqiriqqacha harbiy ta'lif", "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik", harbiy vatanparvarlik, axloq, dasturlar, vazifa, murakkab, jismoniy tarbiya, bevosita, ijtimoiy ong, millatimizning kelajagidir, harbiy psixologiya.

Krish: O'zbekiston Respublikasi tinchlik siyosatini olib borish bilan birga o'z zimmasiga fuqarolar havfsizligi, tinchlik va barqarorligini ta'minlash vazifalarini oladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga ko'ra mudofaaga nisbatan hech kim daxl qilolmaydigan huquqni amalga oshirmoqda, aqliy yetarlilik darajasida davlat harbiy va mudofaa qudratini ta'minlamoqda.

Asosiy Qism. Yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilish uchun tayyorlash Davlat miqyosidagi vazifa. Shu vazifani hal qilishda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, jumladan, fuqaro muxofazasi bo'yicha tayyorgarlik o'quv dasturidagi majburiy fan bo'lib, umumta'lim o'quv muassasalarida, o'rta maxsus va o'rta kasb-hunar ta'lifi muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilarini tomonidan bitirish yili arafasida kurslardan yoki sinflardan boshlab o'tilishi O'zbekiston Respublikasi "Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuning 13-moddasida belgilab berilgan. Ushbu masalaning muhimligi e'tiborga olingan holda Oliy ta'lif bilim yurtlaridagi "Chaqiriqqacha harbiy ta'lif" yo'nalishi, ya'ni bo'lajak "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" o'qituvchilarini tayyorlashdagi asosiy fanlardan biri hisoblangan "Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi" fani kiritilgan. Yoshlar - Vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshirar ekanmiz, avvalo, ular zimmalariga yuklatilayotgan murakkab va mas'uliyatli vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, unga o'zlarini hissalarini qo'shishlari lozim. Zero, Vatanni sevish, unga mehr-muhabbat qo'yish bevosita har kimning shu yurt ravnaqi yo'lida amalga oshirayotgan buniyodkorona ishlari bilan belgilanadi.

Milliy o'zlikni anglashning rivojlanishida milliy vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan, teran fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash katta ahamiyatga egadir. Shuning



uchun Vatan himoyasiga tayyorlanayotgan yoshlarimizning har biri yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi shart. Vatanparvarlik – yuksak insoniy fazilat hisoblanadi. Vatanparvarlik komillikning eng yorqin jihatlaridan biridir. Shuning uchun ham Hadisi Sharifda «Vatanni sevmoq - iymondandur» deb da'vat qilinadi. Vaholanki, o'tmishda jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan xalqning bugungi avlodlari, o'z meroslarining jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilishini ta'kidlab o'tish joizdir, zero ularda bu kabi his-tuyg'ular milliy g'urur hamda ruhiy barkamollikka yetaklaydi, milliy o'zligini anglashga intilishini kuchaytiradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jismoniy tarbiya bilan uzviy bog'liq suratda olib borilganidagina yaxshi natija beradi. Shuning uchun harbiy vatanparvarlik tarbiyasini jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Sovuqqa va issiqqa bardoshli bo'lish, kasalliklarga tezda berilmaslik, qiyinchiliklarni yengish, irodalilik, sabotmatonatlik, tez va chaqqon harakat qila bilish kabi Vatan mudofaachisiga xos fazilatlarni talaba-yoshlar va o'qituvchilarda rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sport o'yinlarining roli benihoyat kattadir.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan mudofaasiga jismonan va ma'naviy jihatdan tayyorlash zarurligi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Xozirda mamlakatimiz aholisining qariyib 65 foizidan ko'prog'ini tashkil etuvchi yoshlar katta ijtimoiy-siyosiy kuch ekanligi bir tomonidan davlat zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklasa, ikkinchi tomonidan esa yoshlarga oid maqbul siyosat yurgizish natijasida ijobiy imkoniyatlar yuzaga chiqadi. Ya'ni, yoshlarni hayotga to'g'ri yo'naltirish, ularga o'zlarini hayotda o'z o'rnnini egallashi uchun moddiy va ma'naviy sharoit yaratib berish asnosida yoshlar va davlat o'rtasidagi munosabat mustahkamlanadi. Bu tabiiy ravishda yoshlarning vatanparvarlik tuyg'usini xis qilishlari va uni yuksaltirishlari uchun xizmat qiladi.

Davlatimiz tomonidan yoshlarga nisbatan yuritilayotgan bunday siyosat bevosa yoshlarning o'z huquqlari va burchlariga rioya qilish mas'uliyatini oshiradi. SHiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda "Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, oliy va o'rta o'quv yurtlarining moddiy-teknik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak bo'ladi. Ya'ni yoshlarni Vatanga bo'lgan muhabbatini ma'rifatga e'tibor bilan amalga oshirish maqsadga muvofiq ekanligi oydinlashadi.

Shu sababli bugungi kunda umumta'lim o'quv muassasalarida, o'rta maxsus va o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'quvchilarni, shu jumladan, oliy ta'lim dargohlarida ta'lim olayotgan talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tayyorlash endilikda ta'lim-tarbiya ishlarining barcha tizimlari orqali amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, Vatanga nisbatan chinakam sadoqat uni himoya qilishga ham qodir bo'lishni talab etadi. O'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barcha



turdagi faoliyat ko'rsatayotgan ta'lif muassasalarining asosiy o'rinni egallashi darkordir.

Harbiy ta'lifini murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon bo'lib, unda asosan quyidagilarini anglash lozim: talaba - yoshlarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularda o'z Vatanining qurolli himoyachisi bo'lish uchun zarur shaxsiy xislatlarni tarbiyalash, komil inson sifatida rivojlantirish, yuzaga kelgan turli vazifalarni hal qilishga ijodiy yondashish malakalarini rivojlantirish va ular oldida turgan vazifalarni bajarishga va har xil vaziyatda muvaffaqiyatli harakat qilishga ruhiy tayyorlikni shakllantirish. Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy aytganidek: "Fan - bu dunyo boyligi. Bilim – insonning oliv vamuqaddas yutug'i. Zero bilish ko'zgu kabi, bizga dunyoga qarashimizni, intilishlarimizni ko'rsatadi. Qilich kabi aqlimizni, fikrimizni o'tkirlaydi". O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'lif tarbiya san'atini egallash muhimligini birnecha bor ta'kidlab o'tgan, "Harbir qatlam kasb va psixologiyasi xususiyatlari, o'ziga xos belgilarini tushunaolishga sabr-toqat va ehtiyyotkorona yondashishi kerak". "Bolalarimizni vatanparvarlik ruhida, ularni mehrli, rostgo'y, vijdonli qilib tarbiyalashimiz kerak".

Axloqiylik - avvalambor bu vijdon, vijdoniylik hissi. Bu- ishonch va haqiqat go'ylikdir. Ajdodlarimiz insonni ahloqiy baholash mezonlar majmuuni ishlab chiqqan, zamonaviy til bilan aytganda, "Sharqiy ahloq kodeksini" yaratgan. Inson qalbida nonni halol topmayotganlar, insofsizlik, vijdonsizlikka nisbatan qarshilik tug'ilishi lozim. Faqat bunday inson o'z so'zida turadi, boshqa kimsa haqqiga ko'z olaytirmaydi, Vatani va xalqi himoyasi uchun o'z jonini ayamaydi va aksincha, kazzob, mahmadonada vatanparvarlik hissi bo'lmaydi. Harqanday yovuz ish, xudbinlik, yuzqoralik - Vatanga nisbatan xoinlikdir.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan xatti-harakat qoidalari yig'indisidir. Axloq odamlarni bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga, Vatanga, ona-yurtga bo'lgan munosabatlarni muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi.

Axloq - bu jamoatchilik tomonidan qabul qilingan, insonlarning jamiyatda, oilada, mehnatda, bir-birlariga munosabatda va o'z-o'zlariga munosabatdagi xulq-atvoriga qo'yildigan talablar, me'yorlar va qoidalarning yig'indisi.

Demokratik jamiyatni quruvchisi jamiyat baxt - saodati yo'lida halol mehnat qilishi, ijtimoiy burchni yuksak darajada anglashi, ijtimoiy va shaxsiy hayotda halollik, rostgo'ylik, axloqiy poklik, oddiylik va kamtarlik kerak, deb ta'kidlangan. Harbiy vatanparvar talaba-yoshlarimiz, birtomondan, fidokorona ta'lif-tarbiya va chuqur bilim saviyalarini oshirish bilan nimalarga qodir ekanini ko'rsatsalar, shunigdek xulq-atvor, axloqlari, ma'naviy go'zalliklari bilan namoyish qilishlari katta ahamiyat kasb etadi.

Ayni zamonda mehnat va ijod maydonining eng og'ir sohalarida jonbozlik, vatanparvarlik, odamiylik fazilatini ko'rsatib jamiyat hurmati va muhabbatining



qaynoq ilhom manbai bo'lib qolmoqdalar. Chunki, bizning oldimizda o'tmishning asoratlaridan ozod bo'lgan, o'zining mustaqil fikriga ega, o'z millati va Vatan manfaatlari yo'lida fidoyilik ko'rsatishga qodir bo'lgan barkamol vorislarni tarbiyalab etkazish vazifasi turibdi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasini tashkil qilish uchun tinch va jangovar vaziyatdagi harbiy xizmat sharoitlarida bilishlarning psixologik faoliyatini o'r ganuvchi harbiy psixologiya ham muhim ahamiyatga ega.

Harbiy psixologiya Vatanimiz himoyasi uchun o'z burchini bajarishga yoshlarni psixologik tayyorlash bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Psixologik fan inson shaxsiyoti, ichki ma'naviy dunyosi, o'zini tutish omillari, bir-biridan xususiyati, qiziqishlari bilan farqlanadigan kishilar bilan harbiy vatanparvalik tarbiyasini to'g'ri tashkil qilishni yaxshi tushunishga yordam beradi.

Tarbiyachilarning psixologik fanni yaxshi bilishi, ularga kasbiy tanlov va yuqori sinf o'quvchilarini harbiy o'quv yurtlariga kirish va O'zbekiston Respublikasi turli faoliyatdagi va Qurolli Kuchlarida hizmat qilishga tayyorlash masalalarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

Yoshlarning harbiy vatanparvalik tarbiyasi, shuningdek zamonaviy urush xususiyati, qurollangan jang vosita va shakllari, qonuniyligi, jangovar harakatlar sharoitlarini oolib beradigan harbiy fan bo'lib, qoida va xuloslarini hisobga olgan holda tashkil kilinadi. Harbiy fan harbir kishiqa ma'naviy-siyosiy, psixologik va jangovar xislatlarga ega bo'lishi, Vatan himoyachisi majburiyatini muvaffaqiyatli bajarishi uchununga qanday bilim, ko'nikmalar zarurligi haqidagi savollarga javob beradi. Harbiy vatanparvarlik tarbiya ilmiy asoslari, Vatan himoyasiga yoshlarning ma'naviy siyosiy va jismoniy tayyorgarligi bo'yicha amaliy faoliyatning mazmuni, shakl va metodlarini aniqlovchi boshlang'ich nizomlar, asos soluvchi qoidalar, talablarini bildiradigan prinsiplarda tadbiq qilinadi hamda aniqlashtiriladi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi prinsiplari o'z mohiyatiga ko'ra ob'ektivdir. Ular haqiqiy holat, real aloqa va munosabatlari aksi, mamlakat mudofaasiga xalqni tayyorlash bo'yicha davlat va ijtimoiy tashkilotlarni ilmiy asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat ifodasidir.

Xulosa: Vatan himoyachilari doimo ulug'lanadi va sharaflanadi. Harbiy xizmat sharoitlariga ko'nikish jarayoni yosh askar va uni o'ragan ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv ekanligini e'tiborga olsak, uni shaxsiy va tashqi omillarga ajratish mumkin. Shaxsiy omillarga ijtimoiy tajriba, harbiy xizmatga munosabat, umumiy ma'lumot darajasi, muayyan mutaxassislikni egallashga bo'lgan qobiliyati, temperamenti va xarakter xislatlari kabilar kiradi. Jangovar navbatchilik, qorovullik xizmati, o'quv-tarbiya jarayoni, ruhiy tayyorgarlik, kichik komandirlardagi rahbarlik usullari va jamoadagi o'zaro munosabatlar esa tashqi omillar sirasiga kiradi. Harbiy bo'linmadagi o'zaro munosabatlar har xil ichki va tashqi omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Zamonaviy harbiy texnika va qurollarning murakablashganligi, ularning bir nechta kishilar tomonidan boshqarilishi bo'linmada va har bir harbiy xizmatchidagi



mas'uliyat hissini nihoyatda oshiradi. Ularni boshqarishda aniqlik va hushyorlik harakatlardagi o'zaro muvofiqlik talab etiladi. Bularnin hammasi harbiy xizmatchilarni bitta jamoa atrofiga birlashtiradi, har bir kishining umumiyligi uchun mas'uliyatini oshiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2. O'zbekiston Respublikasi mudofaa doktrinasi.

3. Talabalarni CHXT va JT mutaxsisligi tayyorlash dasturi.

4. "Yuksakma'naviyat – yengilmaskuch", I.A.Karimov. 2008.

5. "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Toshkent sh., 2018-yil 23-fevral, 140-son

6. Olimjonovich, U. I., Rahmatali o'g'li, E. S., Nurali o'g, J. R. S., & Ikromjon o'g'li, I. S. (2022). YOSHLARDA AXBOROT HAMDA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKILLANTIRISH. Journal of new century innovations, 17(4), 111-115.

7. Umarov I. O., Abduraximov I. ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASHDA, HARBIY TA'LIMNING MAQSADI, VAZIFALARI VA ISTIQBOLLARI //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 15-18.

8. Olimjonovich U. I. et al. YOSHLARDA AXBOROT HAMDA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKILLANTIRISH //Journal of new century innovations. – 2022. – T. 17. – №. 4. – C. 111-115.

9. Umarov, Ismoiljon, Shahrukhkhan Ergashev, and Javohir Salimov. "THE RELATIONSHIPS OF FORMING LIFE CONTENT AND CREATIVE THINKING OF MILITARY SERVANTS." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.1 (2023): 23-27.

10. Umarov, Ismoiljon Olimjonovich, and Iskandar Abduraximov. "ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASHDA, HARBIY TA'LIMNING MAQSADI, VAZIFALARI VA ISTIQBOLLARI." Journal of Integrated Education and Research 1.7 (2022): 15-18.

11. Umarov, I. O., & Abduraximov, I. (2022). ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASHDA, HARBIY TA'LIMNING MAQSADI, VAZIFALARI VA ISTIQBOLLARI. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 15-18.